

**"RBS IMAN TEAM" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT  
SHAKLIDAGI AUDITORLIK TASHKILOTI**

**"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning  
2025-yil Ijroiya organi faoliyati samaradorligining muhim  
ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi  
yuzasidan**

**AUDITORLIK XULOSASI**

## I. KIRISH QISMI

### Auditorlik tashkiloti haqida ma'lumot:

<b>Auditorlik tashkiloti nomi:</b>	Mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi "RBS IMAN TEAM" auditorlik tashkiloti
<b>Ofis manzili:</b>	Toshkent shahri, Yangi hayot tumani, Gulshanobod MFY, 9-Qurilish hududi, 7a-uy, 60-xonadon
<b>Telefon/faks:</b>	(+99893) 300-17-92
<b>Elektron pochta:</b>	<b>rbs.audit17@gmail.com</b>
<b>Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida ma'lumot:</b>	2022-yil 9-noyabrda Toshkent shahri, Yangi hayot tumani, Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2007915-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan
<b>Auditorlik litsenziyasi:</b>	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan 2023-yil 19-avgustda 06249-son bilan auditorlik tashkilotlarining reestriga kiritilgan
<b>Bank rekvizitlari:</b>	Hisob raqam: 20208000405590006001 AKB "O'zsanoatqurilishbank" Bosh ofisi MFO 00440, STIR 310006714, OKED 6920
<b>Auditorlik tashkiloti auditori:</b>	Ummatov Madaminbek Botirbek o'g'li Auditor malaka sertifikati 05738-son, 2021-yil 14-oktyabr
<b>Audit tekshiruvini o'tkazish uchun asos:</b>	2026-yil 27-martdagi 4283334-son shartnoma
<b>Shartnoma predmeti:</b>	"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning 2025-yil uchun Ijroiya organi faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini baholash natijalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish.



Men, Ummatov Madaminbek, "RBS IMAN TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyat auditorlik tashkiloti auditori, 2021-yil 14-oktabr kuni berilgan 05738-son auditor malaka sertifikatiga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyekt - "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" Ajning (keying o'rinlarda - Kompaniya) 2025-yil uchun Ijroiya organi faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini baholash (keying o'rinlarda - SMK) natijalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazdim.

Tekshirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2019-yil 13-dekabrda 30/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 10-fevralda 3219-son bilan ro'yxatga olingan "Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to'g'risida"gi nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risida"gi nizom asosida o'tkazildi.

Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktabrdagi 215-son "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda u ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, davlat korxonalari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini belgilaydi.

Ijroiya organi faoliyati samaradorligini baholash mezonlari Kompaniya Kuzatuv kengashining 2020-yil 27-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra baholash ishlab chiqilgan mezonga ko'ra 100 ballik sistema bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'rsatilayotgan xizmatning maqsadi 2025-yil uchun aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya organi faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlari (SMK)ning baholash natijalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va asoslangan xulosalar bilan hisobot taqdim etishdan iborat.


Kompaniya rahbariyati tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, biz auditorlik tekshiruvini Xalqaro Audit Standartlari (XAS) muvofiq o'tkazdik.

Kompaniya rahbariyati ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun taqdim etilgan ma'lumotlar uchun javobgardir.

Auditorning vazifasi O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq o'tkazilgan audit tekshiruviga asoslanib ushbu hisobotlarning ishonchliligi to'g'risida fikr bildirishni o'z ichiga oladi.

#### **Auditorlik hisobotini tuzish uchun asos bo'lgan normativ hujjatlar**

Auditorlik tekshiruv O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O'RQ-677 sonli "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning Xalqaro Standartlarini tan olish tartibi to'g'risida"gi 171-son qarori hamda Auditing Xalqaro Standarti №805 "Maxsus masalalar – ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditi"ga muvofiq o'tkazildi.



Audit jarayonida quyidagi hujjatlardan foydalanildi:

- Kompaniyaning 2025-yillik balans hisoboti;
- Kompaniyaning 2025-yillik moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- Kompaniyaning 2025-yil uchun tuzilgan biznes rejasi;
- Ichki me'yoriy hujjatlar;
- Boshqa tegishli hisobotlar va ma'lumotlar.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish mobaynida quyidagi axborot manbalaridan foydalanildi:

- O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standartlari;
- O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori;
- "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risida"gi nizomi;
- "Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to'g'risida"gi nizomi;
- Boshqa ma'lumotlar.

### **Kompaniya to'g'risidagi umumiy ma'lumot:**

**To'liq nomi:**

"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati

**Manzili:**

O'zbekiston, Toshkent, Amir Temur shoh ko'chasi 107B, Xalqaro Hamkorlik Markazi, 14A

Telefon/faks: +998 78 148 30 00

Web-sayt: info@uzmrc.uz

**Bank rekvizitlari:**

H/r 21508000005141951001

Toshkent shahar, Markaziy bank HK markazi

Bank kodi 00014, STIR 306834286

**Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumot:**

Toshkent shahar Adliya boshqarmasi tomonidan 2019-yil 04-noyabrda berilgan guvohnoma

Reyestr tartib raqami № 776924

SOOGU - 79994 Davlat va xo'jalik boshqaruvi organi

Tarkibiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari

OKED - 64190 "Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari"

OPF - 153 "Aksiyadorlik jamiyati"

## Tahliliy qism

"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning 2025-yil uchun ishlab chiqilgan "Biznes-rejasi" Kompaniya Kuzatuv kengashining 2024-yil 28-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan. Biznes-rejada quyidagi samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (SMK) belgilangan:

1. Sof foyda (zarar) rejasini bajarish
2. O'rtacha aktivlar rentabelligi (ROAA)
3. O'rtacha aksiyadorlik kapitali rentabelligi (ROAE)
4. Xarajatlarning daromadga nisbati (CIR)
5. Sof foiz marjasi (NIM)
6. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR)
7. Leveraj koeffitsiyenti
8. Kapitalning yetarliligi koeffitsiyenti (CAR)
9. Bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun tavakkalchilikning eng yuqori miqdori
10. Muammoli kreditlar (NPL)

### 2025-yil uchun rejalashtirilgan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari

No	Ko'rsatkich	Salmoq o'lchovi	Reja ko'rsatkichi
	A	B	C
1	Sof foyda (zarar) rejasini bajarish (ming so'm)	15	140 476 713
2	O'rtacha aktivlar rentabelligi (ROAA)	5	2,24%
3	O'rtacha aksiyadorlik kapitali rentabelligi (ROAE)	5	13,78%
4	Xarajatlarning daromadga nisbati (CIR)	5	24,31 %
5	Sof foiz marjasi (NIM)	5	3,66%
6	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR)	10	>100,00 %
7	Leveraj	15	>3,00%
8	Kapitalning yetarliligi koeffitsiyenti (CAR)	15	>10,00%
9	Bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun tavakkalchilikning eng yuqori miqdori	15	<30,00%
10	Muammoli kreditlar (NPL)	10	<5,00%
	Jami	100	

Baholash maqsadi uchun har bir Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari qabul qilingan mezonlarga ko'ra Kompaniya uchun ahamiyatini aks ettiruvchi foizdagi salmoq o'lchovida prognoz ko'rsatkichlari bilan haqiqiy (amaldagi) ko'rsatkichlar solishtirildi.

"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning 2025-yilda Ijroiya organi faoliyati samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (SMK)ni hisoblash bo'yicha

### HISOB-KITOB

No	Ko'rsatkich	Salmoq o'lchovi	Reja ko'rsatkichi		Amaldagi qiymat	Bajarilish foizi	SMK
1	Sof foyda (zarar) rejasini bajarish (ming so'm)	15	kamida	140 476 713	204 396 723	145,5%	22
2	O'rtacha aktivlar rentabelligi (ROAA)	5	kamida	2,24%	3,15%	140,8%	7
3	O'rtacha aksiyadorlik kapitali rentabelligi (ROAE)	5	kamida	13,78%	17,30%	125,6%	6
4	Xarajatlarning daromadga nisbati (CIR)	5	maksimal	24,31%	12,73%	147,6%	7
5	Sof foiz marjasi (NIM)	5	kamida	3,65%	4,12%	112,9%	6
6	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR)	10	kamida	100,00%	106,33%	106,3%	11
7	Leveraj	15	kamida	3,00%	18,86%	628,8%	94
8	Kapitalning yetarliligi koeffitsiyenti (CAR)	15	kamida	10,00%	189,83%	1 898,3%	285
9	Bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun tavakkalchilikning eng yuqori miqdori	15	maksimal	30,00%	20,42%	131,9%	20
10	Muammoli kreditlar (NPL)	10	maksimal	5,00%	-	-	-
	Jami	100				3 437,8%	458

"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning 2025-yil uchun Ijroiya organi faoliyati samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini baholash natijalari **458 ballni** tashkil etdi.

"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati Ijroiya organining olib borgan faoliyatini **yuqori darajada** deb baholaymiz.

**MChJ "RBS IMAN TEAM"**

**Auditori:**

Auditorning kvalifikatsiya sertifikatini  
№ 05738, 14.10.2021 yilda berilgan

08.04.2026 y.



**M.B. Ummatov**